

## TABIY RESURS SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY MASALALARI

**O. Safarov**

Osiyo xalqaro universitet magistranti.

### ARTICLE INFO.

**Key words:**

tabiat, tabiiy resurslar, iqlim resurslari, yer resurslari, suv resurslari, mineral resurslar, atrof muhit muhofazasi, degradasiya, shamol energiyasib quyosh energiyasi.

### Abstract

Maqolada tabiiy resurslardan foydalanishni tashkil etishning zamonaviy masalalari tadqiq etilgan. O'zbekistonda iqlim, yer-suv, mineral resurslardan foydalanishda yuzaga kelgan vaziyat va uning echimlari to'g'risida fikr yuritiladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024  
LWAB.

**Kirish.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi mintaqalarda mavjud tabiiy resurslar, mehnat resurslari, iqtisodiy va intellektual salohiyatlardan samarali foydalanish orqali mamlakat aholisining turmush darajasini oshirish hamda aholi farovonligini sifat jihatdan yaxshilashdan iborat. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar keskinlashgan hozirgi bosqichida, tabiat va uning resurslaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi. SHu boisdan ham yangi iqtisodiy sharoitlarda tabiatni muhofaza qilish va tabitdan samarali foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini yaratishga ayniqsa katta e'tibor qaratilmoqda. CHunki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi aholining sog'lomligi, atrof muhit muhofazasi va tabiatdan foydalanishning holati bilan chambarchas bog'liqdir.

Mamlakatimiz hududlarida iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishida tabiiy resurslardan foydalanish holati turlichadir. Bunda mintaqalarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-ekologik shart-sharoitlarning va omillarning o'rni va ahamiyati salmoqlidir. SHu bilan birga, sohalardagi muammolarning aksariyat qismi omil va resurslardan nooqilona foydalanish bilan bog'langan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2017 yil 21 aprelda "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" farmoni e'lon qilingani bugungi kunda mamlakatimizda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni tashkil etish dolzarb

ahamiyat kasb etayotganligidan darak beradi.

**Adabiyotlar sharhi.** Tabiatdan, uning resurslaridan iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadlarida samarali foydalanish muammolari xorijlik olimlar A.Smit, D.Rikardo, K.Marks, T.Mal'tus, J.Keyns, A.Marshall, V.Leont'evlar, Ya.M.Godel'man, N.YA.Kovalenko, A.A.Varlamov, A.Z.Rodin, G.Mamedov, E.B.Alaev, E.V.Girusov, S.N.Bobo'lev<sup>1</sup> tomonidan o'rganilgan. Ular tabiiy resurslardan, jumladan yer-suv resurslaridan foydalanishning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq qilishga urg'u berishgan.

Mamlakatimizda tabiiy resurslar, ulardan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy, mintaqaviy va ekologik muammolari to'g'risida Q.N.Abirqulov, A.A.Abdug'aniev, V.CH.Kim, F.K.Qayumov, E.F.Trushin, S.CH.Jalolov, F.T.Aminov, SH.T.Ergasheva, A.I Raxmatullaev va boshqalar tadqiqotlar olib borishgan<sup>2</sup>. Buxoro viloyati tabiiy resurslarining xususiyatlari Yu.S.Salomov D.SH.Yavmutovlar tomonidan tadqiq etilgan<sup>3</sup>.

**Metodlar.** Maqolada tizimli tahlil, mantiqiylik va tarixiylik, tizimli-tarkibiy, iqtisodiy-statistik, qiyosiy tahlil, guruhlash usullari qo'llanildi.

**Natijalar.** Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar jamiyat taraqqiyotida eng muhim moddiy sharoitlardan biri bulib, O'zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlantirish va joylashtirishda muhim omil hisoblanadi. Tabiatdan samarali foydalanishni tashkil etishning asosiy maqsadi mamlakatning barqaror rivojlanishiga o'tish sharoitida mintaqalarda asosiy ekologik – iqtisodiy muammolarni aniqlash, ularni hal etish strategiyasini ishlab chiqish, ularning echimini topishning mexanizmlarini aniqlash va tegishli ravishda sezilarli ekologik natijaga erishishga imkon beradigan iqtisodiy tashkiliy o'zgarishlarni amalga oshirishdan iborat.

O'zbekistonning iqtisodiy geografik joylashgan o'rni ancha qulayliklarga egadir. Masalan, 1) Respublikaning O'rta Osiyo markazida joylashganligi, chunki shimoldan janubga yoki garbdan sharqqa boradigan asosiy magistral yo'llar O'zbekistondan o'tishi Respublikaning iqtisodiy taraqqiyotiga qulay ta'sir kursatadi. 2) Qulay rel'ef sharoiti, qulay iqlim-tuproq resurslariga egaligi hamda sug'orish suv manbalariga boyligi. 3) O'zbekistonni markazda joylashuvi qo'shni respublikalar bilan xilma xil ishlab chiqarish aloqalarini rivojlantirishda, respublikalararo hududiy ishlab chiqarish komplekslarini yaratishda, respublikalarning tutash hududlarida joylashgan turli resurslardan birgalashib foydalanishda katta imkoniyatlar ochib beradi.

O'zbekiston juda katta mineral boyliklarga ega oltin, mis, molibden, volpfram, qo'rgoshin va rux,

<sup>1</sup> Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Соц. Экиз. 1962; Рикардо Д. Начало политической экономии и налогового обложения. Антология экономической классики. – М.: Прогресс. 1993; Маркс К., Энгельс Ф. Соч. 2–изд. Т.32; Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Прогресс, 1978; Маршалл А. Принципы экономической науки в 3-х томах. – М.: Прогресс.

<sup>2</sup> Абдуганиев А.А. Қишлоқ хўжалиқ иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ. 2005; Трушин Э.Ф. Реформирование земельно-водных отношений как условия экономического роста (на примере Республики Узбекистан). Дис. на соис. уч. степ. д.э.н. –Т.: 1997; Каюмов Ф.К., Ким В.Ч. Экономический механизм улучшения использования земельно-водных ресурсов. –Т.: Мехнат. 1998. – 48 с.; Ким В.Ч. Эффективность использования орошаемых земель. Дис. на соис. уч. степ. д.э.н. –Т.: 1993; Джалалов С.Ч. Развитие орошаемого земледелия в регионах Узбекистана в условиях дефицита водных ресурсов. Дис. на соис. уч. степ. д.э.н. –Т.: 1998; Аминов Ф. Ер ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг ҳудудий хусусиятлари (Қашқадарё вилояти мисолида). И.ф.н. дис. автореф. –Т.: 2004; Эргашева Ш.Т. Қишлоқ хўжалиқ ерларидан самарали фойдаланиш жараёнларини моделлаштириш (Тошкент вилояти мисолида). И.ф.н. дис. автореф. –Т.: 2004; Рахматуллаев А.И. Бозор иқтисодиёти шароитида қишлоқ хўжалиғи ер муносабатларини такомиллаштириш. И.ф.н. дис. автореф. – Т.: БИИТИ. 2002. – 22 б.

<sup>3</sup> Саламов Ю.С. Использование земель в сельском хозяйстве и пути повышения их экономической эффективности (на материалах Бухарской области). Автореф. дис. к.э.н. – Т.: 1974. – 26 с.; Явмутов Д.Ш. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида суғориладиган ерлардан фойдаланишнинг ҳудудий хусусиятлар. И.ф.н. даражасини олиш учун ёзилган диссертация атореферати. –Т.: - 28 б.

tabiiy gaz, qimmatbaho toshlar jihatidan jahonda birinchi o'rinlarda turadi. Bundan tashqari fosforit, tuz, oltingugurt, alyuminiy xom ashyosi pardozlash va qurilish materiallarining katta zahirasi mavjud.

Jahon yoqilgi balansida faol regionlardan hisoblanadi. Gaz va neft boyliklari ko'p yerda uchraydi. Shimoliy So'x, Janubiy Olamushuk, Polvontosh, Chimyon, Sho'rsuv, Mingbuloq konlari bor. Ularda neft va gaz qazib olinadi. Neft yana Surxon vodiysida Amudaryo, Xovdog, Qashtor va boshqa yerlardan olinadi. Buxoro va Qashqadaryo regionlarida gaz konlari ko'p. Shurtan, Zevarda, Muborak, Uchqir, Jarqoq gaz konlari keyingi vaqtda katta istiqbolga ega bo'lgan Kukdumaloq neft-gaz koni ishga tushirildi. Qidirib topilgan tabiiy gaz 2 trln metr kub zahirasi ega (1jadval).

O'zbekiston okean va dengizlardan uzoqda, Evrosiyo materigining ichki qismida joylashganligi tufayli kontinental iqlimga ega bo'lib, osmoni nihoyatda ochiq, seroftob, uzoq davom etadigan jazirama issiq va quruq yoz bilan, shu geografik kenglik uchun birmuncha sovuq qish bilan tavsiflanadi. O'zbekistonda iqlimning barcha unsurlarining yillik o'zgarishi orasida katta tafovutlar mavjud bo'lib, ular eng avvalo iqlim hosil qiluvchi omillarning xususiyatlariga bog'liq.

### 1-jadval.

#### O'zbekistonda mineral resurs turlarining zahirasi va qazib olinishi.

№	Mineral resurslar	O'lchov birligi	Zahirasi		Qazib olish	
			miqdori	jahonda o'rni	miqdori	jahonda o'rni
1	Oltin	tonna	5990,5	3	89,9	9
2	Kumush	tonna	21559,9	9	232,3	22
3	Uran	ming tonna	96,7	11	3,5	7
4	Mis	ming tonna	16336,2	12	137,1	24
5	Volfram	ming tonna	123,6	6	-	-
6	Neft	mln tonna	177,2	44	0,9	47
7	Tabiiy gaz	mird m <sup>3</sup>	2276,5	21	54,4	24
8	Ko'mir	mln tonna	1950,1	16	3,5	30


SHu sababdan O'zbekiston hududida quyoshsevar o'simliklar etishtiriladi. Qishloq xo'jaligining ixtisoslashgan tarmoqlari ham mazkur yo'nalishlarda rivojlangan. Dehqonchilikda ham, chorvachilikda ham issiqsevar qishloq xo'jalik resurslari shakllangan va rivojlangan.

O'zbekistonda quyosh ufqdan baland bo'lganligi, bulutsiz kunlarning ko'pligi oqibatida quyosh uzoq vaqt nur sohib turganligi tufayli uning hududiga ko'p yorug'lik energiyasi (issiqlik) tushadi. Jumhuriyatimiz shimoliy qismida har sm<sup>2</sup> yuzaga yiliga 136—140 kilokaloriya issiqlik, ya'ni radiatsiya tushsa, janubiy qismiga 160 kilokaloriya issiqlik tushadi. Shu sababdan mamlakatning barcha hududlarida quyosh va shamol energiasidan foydalanib energiya olishni yo'lga qo'yish samarali hisoblanadi.

O'zbekistonda shamolning o'rtacha yillik esish tezligi uncha katta emas. Uning tekislik qismida tezligi sekundiga 3-4,6 m atrofida (Kogonda 2,8 m, Tomdida 3,7 m, Urganchda 3,4 m, Churuqda 4,6 m) bo'lsa, tog' oldi qismida esa sekundiga 1,5-3 m dan (Toshkentda-1,4m, Samarqandda-1,4 m, Termizda-2,6 m) oshmaydi. O'zbekistonda kuchli shamollar (tezligi sekundiga 15m.dan ortiq) uning tekislik qismida kam bo'lib, yiliga 3-11 kungacha (Xivada-3 kun, Buxoro va Kogonda-5 kun, Tomdida-10 kun,

Chimmoyda-3 kun) boradi. Lekin O'zbekistonning tor oldi qismida, vodiylarning toraygan joylarida va unga yaqin hududlarda (Mirzacho'l, Fargona vodiysining «Xo'jand darvozasi» atrofida, Sangzor vodiysining Mirzacho'lga chiqaverilishida va boshqa joylarda) kuchli shamollar sodir bo'lib, tezligi sekundiga 15 mm.dan oshadigan kunlar yiliga 15 dan 64 kungacha (Termizda-15 kun, Jizzaxda-24 kun, Qo'qonda-39 kun, Ursatevskiyda-47 kun, Zaporozheskayada-64 kun) boradi.

O'zbekistondagi yana bir mahalliy shamol bu garmseldir. U issiq va quruq shamol bo'lib, bahor va yozda esadi. Garmsel esganda harorat ko'tarilib, 40° dan oshadi, aksincha, nisbiy namlik pasayib, 5- 10% ga tushib koladi. Ba'zan garmsel esganda tezligi sekundiga 15-20 m. ga yetib, havoga quyuq to'zon ko'tariladi, osmon xiralashib, dim bo'lib, harorat ko'tarilib ketadi. Oqibatda qishloq xo'jalik ekinlari, hatto mevali daraxtlar zarar ko'radi, ularning barglari sarg'ayib, qurib to'kilib ketadi.



### 1-rasm. O'zbekiston hududining shamol energiyasi bo'yicha kartasi.

Garmsellar O'zbekistonning Buxoro, Samarqand, Navoiy, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida, Farg'ona vodiysida tez-tez esib turadi. Xorazm viloyati va Qorakalpog'istonda esa kamroq bo'ladi.

Umuman shamolning kuchi va uning harakatidan energetika tizimida foydalanish katta ahamiyatga ega. O'zbekistonda, ayniqsa yuqorida sanab o'tilgan hududlarda bundan foydalansa katta imkoniyatlar mavjud.

O'zbekiston xo'jaligi, xususan qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan eng muhim omillardan biri bu issiqlik resursidir. Chunki qishloq xo'jalik ekinlarining pishib etilishi, mevalarning shirin bo'lishi uchun ma'lum darajada issiqlik talab etiladi. Bu jihatdan qaraganda O'zbekiston juda qulay issiqlik resursiga ega.

O'zbekistondagi cho'l yaylovlari suv bilan ta'minlashda, kichik maydondagi ekinlarni sug'orishda shamol energiyasi asosida ishlovchi nasoslar yordamida yer osti suvlaridan foydalanish mumkin. Bulardan tashqari, ferma va chorvadorlar xonadonini, geologic qidiruv, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi xodimlarni elektr energiyasi bilan ta'minlashda, sho'r suvlarni chuchuklashtirishda shamol kuchi bilan ishlovchi agregatlardan foydalanish mumkin. Ma'lumki, shamolning o'rtacha yillik tezligi sekundiga 2,5-3,5 m. bo'lganda 10-12 kilovatt quvvatga ega bo'lgan shamol elektr agregati bema'lol ishlaydi va yiliga 26-35 ming kilovatt-soat energiya ishlab beradi. Bu jihatdan qaraganda O'zbekiston qulay imkoniyatga ega. Chunki uning ko'pchilik qismida (Mirzacho'l, Dalvarzin cho'lida, Ustyurt va Quyi Amudaryoda, Qizilqumda) yillik shamolning o'rtacha tezligi sekundiga 2,5-4,6 m. ga yetadi.

Bunday tezlikka ega bo'lgan shamol kuchidan VB-3, VM-3 kabi shamol agregati yordamida soatiga 4000-4300 litrgacha yer osti suvini tortib olish mumkin.

O'zbekistonning issiq, quruq va serquyosh iqlimi ko'p kasalliklarni, xususan buyrak shamollash kasalligini davolashda ahamiyatli hisoblanadi. Chunki buyrak shamollash kasali bilan og'rikan kishilar buyragini juda tinch saqlashi kerak. Bunda teri buyrak vazifasini bajarishi lozim. Teri bunday vazifani faqat issiq, quruq va quyoshli iqlimiy sharoitdagina bajara olishi mumkin. Vaholanki, bunday iqlimiy sharoit O'zbekistonning tekislik qismida mavjud. Shu sababli Buxoroda buyrak kasalini davolaydigan Mohi Xosa sanatoriysi joylashgan.

2022 yil 1 yanvar xolatiga O'zbekiston Respublikasining ma'muriy chegarasidagi umumiy yer maydoni 44896,9 ming gektarni tashkil qiladi. Respublika bo'yicha korxonalar, tashkilot, muassasalar, fermer xo'jaliklari va fuqarolarning foydalanishidagi jami yerlar 44410,3 ming gektarni, shundan sug'oriladigan yerlar esa 4313,1 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 9,7 foizini tashkil qiladi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar mamlakat yagona yer fondida eng asosiy o'rin tutadi va O'zbekiston Respublikasi xududining 46,1 % ni egal-lagan bo'lib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda asosiy vosita hisoblanadi.

Tuproqlarni degradatsiyaga uchrashiga sabab bo'luvchi va unumdorligining pasayishiga olib keluvchi omillardan biri - suv va sug'orish eroziyasidir. Eng kuchli sug'orish eroziyasi jarayonlari past tog'lar, tog' osti va tog' oldi mintahalaridagi to'q tusli va tipik bo'z tuproqlarda rivojlangan. Suv eroziyasiga uchragan yerlar sug'oriladigan yerlar umumiy maydonining 8 % ni tashkil etadi, shundan 2 % o'rtacha va kuchli darajada eroziyaga uchragan. Suv eroziyasiga chalingan maydonlar asosiy qashqadaryo, Toshkent va Samarqand viloyatlari hududlariga to'g'ri keladi.

Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining sifat jihatidan baholash ishlarini amalga oshirish natijasida respublika miqyosida qishloq xo'jaligi korxonalarini o'z tasarrufidagi yerlarning tabiiy unumdorligi holati to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish barobarida qishloq xo'jaligi ekinlarini tuproqlarning xossa va xususiyatlari, unumdorlik darajasiga qarab, hududiy holda tabaqalashtirib, joylashtirish imkoniyatlariga ega bo'lmoqdalar.

**1-jadval.**

**O'zbekiston yer fondining toifalar bo'yicha taqsimlanishi.**

T/r	Yer fondining toifalari	Umumiy maydon		Jumladan sug'oriladigan yerlar	
		Jami	Foiz hisobda	Jami	Foiz hisobda
1	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	21453,2	48,31	4217,7	9,5
2	Aholi punktlarining yerlari	220,4	0,50	48,3	0,1
3	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar	1995,8	4,49	12,0	0,03

4	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreasiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar	75,9	0,17	0,6	0,001
5	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	1,1	0,002	0	0
6	O'rmon fondi yerlari	9462,3	21,31	30,7	0,07
7	Suv fondi yerlari	821,1	1,85	4,6	0,01
8	Zahira yerlar	10380,5	23,37	1,8	0,004
	Jami yerlar:	44410,3	100	4315,7	9,72

Respublikamizda aholi sonini o'sishi, yer va suv resurslarining cheklanganligi mavjud sug'oriladigan yerlarning unumdorligini saqlash, qayta tiklash, oshirish va muhofazalashni taqozo etadi. Ekologik toza biomahsulot etishtirish, mineral va organik o'g'itlarni qo'llash, ekinlarni tuproq sharoitlarini hisobga olib joylashtirish eng muhim masalalardan biridir.

Respublika yer fondining samaradorligini oshirish uchun undan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish hamda muhofazalashda yerlarni taqsimlash, tabiiy landshaftlarini saqlash va yaxshilash, buzilgan yerlarni qayta tiklash, mahsuldorligi past yerlarni tuproqlash, yerlarni eroziyadan, tuzlardan, ikkilamchi sho'rlanishdan, cho'lga aylanishidan asrash, ularning mahsuldorligiga ta'sir etuvchi boshqa salbiy holatlarni oldini olish bo'yicha majmuyiy va izchil chora-tadbirlarni ishlab chiqish olimlar oldidagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O'zbekistonda sanoat tarmoqlarini modernizatsiyalash sharoitida tabiiy resurslar potentsialidan foydalanish jarayonida iqtisodiy-ekologik munosabatlarni tartibga solish xalqaro munosabatlar tizimida ahamiyatli rol o'ynaydi. Tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish muammosining dolzarbligi davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topmoqda. Hozirgi texnologik o'zgarishlarning yangi to'lqini ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanishini boshqarishning tuzilmasini ishlab chiqishni taqozo etuvchi iqtisodiy-ekologik munosabatlarning rivojlanishiga turtki bo'lmoqda.

So'nggi yillar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, sanoatning rivojlanib borishi bilan iqtisodiy-ekologik xavfsizlik masalalarini hal qilishda ilmiy asoslangan yondashuvlar zarur bo'lmoqda. SHuningdek, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, sanoatning barqaror rivojlanish mummmolarini nazariy asoslash talab etilmoqda.

**Xulosa.** Zamonaviy ishlab chiqarishga ham iqtisodiy, ham ekologik tizimlarning o'zaro bog'liq jarayonlaridan iborat bo'lgan murakkab iqtisodiy-ekologik tizim sifatida qaralishi zaruriyatini tug'diradi. Bunda iqtisodiy-ekologik boshqarish darajasini oshirish ekologik ta'sirlashuvning ikkita bir-birini to'ldiruvchi – texnogen va texnologik turlariga asoslanishi lozim.

Zamonaviy korxonalarini boshqarish tizimida ishlab chiqarishning iqtisodiy-ekologik tashkil etuvchilarini majmuaviy tahlil etish mexanizmlari va usullarining takomillashmaganligi ko'p hollarda samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan xarajatlar hajmini noto'g'ri baholashga, iqtisodiyotning real sektorida etarlicha moliyalashtirishning va texnik vositalarning mavjud emasligi atrof-muhit holatining yomonlashuviga olib keladi. Sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning iqtisodiy-ekologik

muammolarini tadqiq etish iqtisodiy fanlarning turli bo'limlarining kesishuvida amalga oshiriladi: ishlab chiqarishni boshqarish nazariyasi, tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti, iqtisodiyotning davlat tomonidan boshqarish, jumladan, iqtisodiy-ekologik boshqarish.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonasi ishlab chiqarish faoliyati samaradorligi faqatgina ishlab chiqarish dinamikasiga bog'liq bo'lib qolmasdan, ekologik muhitning turg'un holatini saqlash harajatlariga ham bog'liqdir. SHundan kelib chiqqan holda, sanoat korxonasi oldida turgan muhim vazifalardan biri – faqatgina yuqori foyda olish maqsadida ishlab chiqarish resurslarini samarali joylashtirish bo'lib qolmasdan, balki ishlab chiqarishning iqtisodiy-ekologik parametrlarini saqlashga qaratilgan iqtisodiy mexanizm tizimini yaratishdir.

Ekologik muammolarning yuzaga kelishi intensivatsiyalashning muhim sharti bo'lib xizmat qiladigan ishlab chiqarish faoliyati samaradorligining yangi yondashuvlari, usullari va mezonlarini shakllantirish va amalga oshirish masalalarining paydo bo'lishini talab etadi.

Shunday qilib, xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, sanoat korxonalarini, ayniqsa, mineral xom ashyo resurslarini qazib chiqarish korxonalarini rivojlantirishda ekologik omil, albatta, e'tiborga olinishi zarur. Bizning fikrimizcha, hozirgi ishlab chiqarishning innovatsion rivojlanish xarakterini aniqlashning zamonaviy yondashuvdagi xarajatlar va natijalarning nisbati orqali faoliyatni baholash samarali bo'lmay, uni ekologik natijalar bilan ham bog'lash lozim. Ishlab chiqarish samaradorligi texnik-iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv potentsialidan foydalanish va ekologik natijalarga bo'lgan integratsiyalashgan yondashuvga bog'liq bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shoimardonkulovich, Yavmutov Dilshod, and Sharapova Nigina Kadirovna. "GREEN FACTOR OF ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN." *Gospodarka i Innowacje*. 23 (2022): 102-104.
2. Явмутов Д. Ш., Бурхонов Ж., Каримова К. ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТНИ ҚЎЛЛАШДА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ ВА УНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЖОРИЙ ҚИЛИШ ИМКОНИЯТЛАРИ //" Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал. – 2023. – Т. 2. – №. 10.
3. Dilshod, Yavmutov, and Burkhonov Sardor. "O 'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O 'TISHI: ISTIQBOL YO 'NALISHLAR VA USTUVOR VAZIFALAR." *Journal of new century innovations* 10.2 (2022): 159-168.
4. Национальный доклад о состоянии окружающей среды и использовании природных ресурсов в Республике Узбекистан. Чинар ЭНК, 2015. 145 с.
5. Bibirajab, Y., & Niginabonu, S. (2024). Historical Geography of Amir Timur State. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(1), 7-10.
6. Yuldosheva, B. (2024). The current state of green spaces and their historical changes in Bukhara City. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 84, p. 01039). EDP Sciences.
7. Mirjonovna, Y. B. (2021). CHO'L SHAMOLLARINING BUXORO SHAHAR TARIXIDA TUTGAN O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 637-645.
8. Yuldosheva, B., & Razikova, M. (2023). XORAZMSHOHLAR DAVLATINING TARIXIY GEOGRAFIYASI. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (Vol. 1, pp. 420-422).